# ⚡Hokimlik qabuli: Har bir murojaat – e’tiborda!

✍ Bugun Rishton tuman  hokimining navbatdagi fuqarolar qabuli oʻtkazildi.
????Qabulda tuman hokimi Bahodirjon Xoliqov, sektor rahbarlari, Xalq qabulxonasi mudiri Shuhratjon Rahimov bilan birgalikda muammosi va murojati boʻlgan fuqarolar bilan yuzma-yuz suhbatlashib, murojaatlarini birma-bir tingladi.
????????Ochiq  muloqot tarzida kechgan qabulda tumandagi mutasaddi tashkilot u rahbarlari ishtirokida moddiy yordam, ishga joylashtirish, uy-joy qurishda yordam berish, qishloq yoʻllarini ta’mirlash va kadastr hujjatlarini tayyorlashda yordam berish bilan bogʻliq boʻlgan murojaatlar tinglandi va ayrim murojaatlar joyida ijobiy hal etildi.
????Vaqt talab etiladigan murojaatlar boʻyicha tegishli tashkilotlar mutasaddilari ishtirokida zarur choralar koʻrilishi, topshiriqqa koʻra, har bir murojaat asoslicha oʻrganilib chiqilib, qonuniy yoʻl bilan yechimini xal etilishi nazoratga olindi.

✍**Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati**

2024-07-18 14:33:51